

NAZAR ESHONQULNING “GO‘RO‘G‘LI” ROMANI TAHLILI

Umaraliyeva Dilnoza Shukurjon qizi

Buxoro davlat universiteti filologiya va tillarni o‘qitish:
o‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek modern adabiyoti vakili Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li” romani qilinadi. O‘ziga xos jihatlari haqida xulosalar qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek modern adabiyoti, “Go‘ro‘g‘li” romani, o‘ziga xos xususiyatlari.

Kirish. Modernizm XX asr Jahon adabiyoti, san’atida muhim hodisa hisoblanadur. Bunga misol Frans Kafka, Albert Kamyu va boshqalarni misol qilsak bo‘ladi. Nafaqat, Jahon adabiyotida, balkim o‘zbek adabiyotida ham bunday asarlarni ko‘rishimiz mumkin. Ulug‘bek Xamdam yozganidek: “Modern asarlar o‘z kitobxonini topayotgan, uni qadrlovchilar soni ko‘payib borayotgan bir paytda tamomila o‘ziga bir nuqtai Nazar bilan chiqayotgan, bu hodisani bizga hamon yod hodisa deb qarayotgan olimlarimiz ham bor”. [1.k.h-davron.uz]. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshning ta’riflashicha: “Modernizm olam hodisalari va odamga munosabat, ulardagi turli tuman holatlarni izohlash hamda tasvirlashda o‘ziga xoslikka intilib, klassik yondashuv yo‘sini inkor etish yo‘llidan borgan, g‘oyat ko‘p tarmoqli, falsafiy - estetik hodisadir”. [2. Qozoqboy Yo‘ldosh. „Yoshlik”, 2014-yil, 9-son].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

“Go‘ro‘g‘li” romani o‘tgan asrning 90-yillar boshida, naq yigirma besh - yigirma olti yil oldin yozilgan. Men uni bir necha marta qayta ishlashga urindim. E’lon qilishdan oldin 5-10 ta o‘zim hurmat qiladigan adiblar, adabiyotshunoslari

o‘qidi. [3. Nazar Eshonqul. “O‘zim haqimda”, “Xalq so‘zi”] Asar qahramoni o‘zligini isbot qilishga urinayotgan inson. Bosh qahramoni N. ismli shaxs. U obro‘li davlat ishida ishlaydi. Uning kuni bir xilda sokin o‘tadi. Shunday kunlarning birida N. Hovva ismli ayolning qo‘lini so‘ragani uyiga boradi. Ammo ayol N. Ning cho‘ntagidagi gazetadan hozir o‘lganligi haqidagi xabarni o‘qiydi va N. ni haydab yuboradi. Voqealar rivoji ana shunday boshlanadi. Endi N. o‘zining tirik ekanligini isbotlashga urinadi. Bu paytda hamma uning janozasiga tayyorgarlik ko‘rayotgan edi. N. izlanishlarining natijasida aslida u emas, K. ismli shaxs vafot etganini aniqlaydi. Lekin hukumat unga bir kunmas bir kun baribir vafot etishini va shu vafot etganlar ro‘yxatiga ismi qo‘shlishini aytadi. N.ning fojiasi go‘rga aylangan jamiyatda yashab turib, o‘zining tirik ekanligini isbotlamoqchi bo‘lganida. Bu esa oxir oqibat o‘zi uchun go‘r qazilishiga olib keldi. O‘sha go‘rga esa o‘zi tushishini bilmas edi. Asar nomiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “Go‘ro‘g‘li” xalq og‘zaki ijodining namunasidir. Unga go‘rda tug‘ilganligi uchun Go‘ro‘g‘li ismini qo‘yishgan. Nazar Eshonqul asariga “Go‘ro‘g‘li” nomini qo‘yishiga quyidagi sabablar bo‘lishi mumkin:

1. Tirik insonni vafot etdi deb, nomini go‘rga tiqishlari. Inson farzandi birdan o‘lmaydi, lekin jamiyat uni o‘ldirishga qodirligi.

2. N. go‘r qazishi va oxir oqibat o‘sha go‘rga o‘zi ko‘milishi.

Birovning quyoshi botgan joydan boshqaning quyoshi chiqadi. [4.N. Eshonqul. “Go‘ro‘g‘li” romani]. Asardagi ushbu misra bu dunyoning o‘tkinchi ekanligiga yaqqol misol bo‘la oladi. Kimdir bu dunyodan ko‘z yumsa, yana kimdir bu dunyoga keladi. Asar qahramoni o‘ttiz uch yil yashagan va umri davomida hech Kim ekanligini anglab yetgandi.

Muhokama

Nazar Eshonqulning asarlarni har biri o‘zgacha, lekin har bir asarning bosh g‘oyasida Insonning o‘zligini anglash masalasi ustun turadi. Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari”, “Qora kitob” asarlari qatorida “Go‘ro‘g‘li” romani ham falsafiylik bilan yaratilgan. Asarni kitobxon bir o‘qishi bilan asar qahramoni yashayotgan muhitdan bug‘lib ketadi. O‘sha muhitdan chiqishga harakat qiladi. Bunday asarlarni o‘qish insonning hayotga bo‘lgan qarashlarini o‘zgartiradi.

Natija

Bir parcha qog‘ozning inson hayotidan, qadr-qimmatidan ustun qo‘yilgani va uni o‘limga hukm qilinganidir. Inson - kurash farzandi. Jamiyat esa faqat qog‘ozbozlik qilishdi, inson qadr-qimmatini pisand etmasligi asarda ko‘rsatib o‘tilgan.

Xulosa

Modernizm shunchalik o‘ylab topilgan yo‘nalish emas, balkim bashariyatning taraqiyotida tarixiy, siyosiy va psixologik evrilishlar natijasida inson ko‘nglida paydo bo‘lgan ruhiy-ma’naviy inqiroz bilan bog‘liq hol- kayfiyatdir .

Shunday qilib, XX asr modernizm adabiyoti ham xuddi XIX asr romantizm adabiyoti singari madaniy ma’no doirasiga aylandi, uning ichida g‘arb dunyosi qadriyatlari tanqidiy jihatdan tekshiruvdan o‘tkazildi. [5. M. Xolbekov “Yoshlik”, 2011-yil,4-son].

Bir so‘z bilan aytganda , „ Go‘ro‘g‘li “ romanida modernizm alomatlari yaqqol sezilib turibdi.

Adabiyotlar:

- 1) k.h-davron.uz
- 2) Qozoqboy Yo‘ldosh “Yoshlik”,2014-yil,9-son.
- 3) “Nazar Eshonqul haqida”. “Xalq so‘zi” gazetasi.
- 4) Nazar Eshonqul, “Go‘ro‘g‘li” romani.
- 5) Mahmudjon Xolbekov, “Yoshlik” jurnali , 2011-yil , 4-son.